

IJTIMOIIY TARMOQLAR ORQALI MADANIYATLARARO MULOQOTNI O'RGANISH: ZAMONAVIIY O'QUVCHILARNING YONDASHUVI

Baxodirova Diyora

O'zDJTU Ingliz tili 3-fakulteti talabasi

Ilmiy maslaxatchi: Xujaniyazova Hilola

O'zDJTU katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada ijtimoiy tarmoqlarning xorijiy til ta'limida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni o'rganilgan. Ishda zamonaviy o'quvchilarning ta'limga bo'lgan yondashuvi, ya'ni qisqa, interaktiv va vizual kontent orqali o'rganishga intilishi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida TikTok, YouTube, Instagram, X (sobiq Twitter) va Reddit kabi ommaviy platformalarning ta'limiy imkoniyatlari ko'rib chiqilib, ularning yordamida o'quvchilarda madaniy xabardorlik, empatiya, refleksiya va sotsial moslashuv kabi madaniyatlararo kompetensiya tarkibiy qismlari rivojlanishi kuzatilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida ijtimoiy tarmoqlarni samarali pedagogik vosita sifatida joriy etish, ularni til va madaniyatni birgalikda o'rgatishda qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo muloqot, xorijiy til ta'limi, ijtimoiy tarmoqlar, zamonaviy o'quvchi, TikTok, YouTube, Instagram, Twitter, Reddit, madaniyatlararo kompetensiya, Byram modeli, Deardorff modeli.

Annotation. This scientific article explores the role of social media in developing intercultural communication competence in foreign language education. The study analyzes the modern learners' approach to education, particularly their preference for short, interactive, and visual content. The research examines the educational potential of popular platforms such as TikTok, YouTube, Instagram, X (formerly Twitter), and Reddit, observing how they contribute to the development of intercultural competence components such as cultural awareness, empathy, reflection, and social adaptation. The findings highlight the potential of integrating social media into the educational process as an effective pedagogical tool for simultaneously teaching language and culture.

Keywords: intercultural communication, foreign language education, social media, modern learner, TikTok, YouTube, Instagram, Twitter, Reddit, intercultural competence, Byram model, Deardorff model.

Kirish.

Yangi avlod o'quvchilari ta'lim jarayonida uzoq vaqt davomida bir narsaga diqqatini jamlay olmaydi. Ularning o'ziga xosligi ham aynan shunda: ular yangi bilimlarni an'anaviy kitoblardan o'qish yoki uzundan-uzoq ma'ruzalarni tinglash orqali emas, balki ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa videolar va dolzarb trendlar orqali o'rganishni afzal ko'rishadi. Almudena Márquez Indias ta'kidlaganidek, "ta'limda texnologik taraqqiyotdan to'liq foydalanib, o'quvchilarni onlayn

muloqot va hamkorlikka jalb etish zarur. Bu orqali raqamli inqilob va uning kundalik hayotimizga ta'siri yoritiladi" (Márquez Indias, 2022).

Madaniyat esa jamiyat yoki ijtimoiy guruhning o'ziga xos ma'naviy, moddiy, intellektual va hissiy xususiyatlarining jamlanmasidir. San'at va adabiyot, turmush tarzi, qadriyatlar tizimi, an'analar va e'tiqod kabi muhim jihatlarning barchasi aynan madaniyat doirasiga kiradi (UNESCO, 2002). Xorijiy til o'rganish jarayonida shu tilda so'zlashuvchilar madaniyatini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega, chunki madaniyat – muloqotning ajralmas qismidir (Martin & Nakayama, 2017).

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi (intercultural communicative competence) zamonaviy til ta'limida muhim o'rin egallaydi. Bu kompetensiya kishining boshqa madaniyat vakillari bilan samarali va moslashuvchan muloqot qilish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu tushunchaning eng muhim nazariy asoslaridan biri — Michael Byram tomonidan ilgari surilgan model bo'lib, u madaniyatlararo kompetensiyani besh asosiy komponent orqali izohlaydi: sotsial tajriba, madaniyatga oid bilimlar, tafakkur qilish va baholash qobiliyati, muloqot qilish va til orqali ifodalash, hamda o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga tayyorlik.

Muhokama

Byramning yondashuvida til va madaniyat ajralmas bir butun sifatida qaraladi, ya'ni chet tilini o'rganish shu til egalarining madaniyatini chuqur anglashsiz to'liq bo'lishi mumkin emas (Byram, 1997). Shu jihatdan, til faqat aloqa vositasi emas, balki madaniy kodlarni yetkazuvchi tizim sifatida ham qaraladi. Darla Deardorffning kompetensiya modelida "madaniy anglash", "sabr-toqat", "ichki refleksiya" kabi fazilatlar asosiy rol o'ynaydi (Deardorff, 2006). Ijtimoiy tarmoqlar aynan mana shu ko'nikmalarni real tajriba asosida o'rgatadi: foydalanuvchilar begona madaniyat vakillarining postlari, videolari, izohlari orqali boshqa qarashlar, qadriyatlar va odatlar bilan to'qnash keladi. Bu esa o'z-o'zidan ichki tahlil, qabul qilish yoki tushunishga urinish jarayonlarini faollashtiradi.

Bugungi kunga kelib madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning eng qulay va ommabop vositalaridan biri bu — ijtimoiy tarmoqlardir. Platformalar — masalan, TikTok, YouTube, Instagram, X (sobiq Twitter) va Reddit — nafaqat muloqot maydoni, balki turli madaniyatlarning bevosita aks etadigan, real va jonli ko'rinisdagi sahnasi hisoblanadi. Bu tarmoqlarda turli millat vakillari o'z hayot tarzini, qadriyatlarini, urf-odatlarini, hatto hazillarini ham ochiq namoyish qiladilar. Aynan shu ochiqlik madaniyatlararo xabardorlik, empatiya va tolerantlik kabi kompetensiya tarkibiy qismlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

TikTok — bu qisqa video formatiga asoslangan ijtimoiy tarmoq bo'lib, foydalanuvchilarga kreativ kontent yaratish, madaniy trendlar, raqslar, hazillar va kundalik hayotga oid videolarni baham ko'rish imkonini beradi. U yoshlar

orasida mashhur bo'lib, turli millat vakillarining madaniyatini bevosita ko'rish va tushunishda foydalidir.

YouTube — bu dunyodagi eng yirik video platformasi bo'lib, foydalanuvchilar tomonidan yuklangan turli xil kontentlarni (bloglar, darslar, intervyular, hujjatli filmlar va h.k.) tomosha qilish imkonini beradi. Til o'rganish va madaniyatlararo ko'nikmalarni rivojlantirishda keng foydalaniladi.

Instagram — bu vizual kontent (rasm, video, hikoya) almashish uchun mo'ljallangan ijtimoiy platforma bo'lib, unda foydalanuvchilar o'z hayoti, urf-odatlarini va madaniyatlarini vizual shaklda ifodalaydi. Storylar va reels funksiyasi orqali qisqa madaniy voqealiklar bilan tanishish mumkin.

X (ilgari Twitter) — bu mikrobog'lanish asosidagi platforma bo'lib, foydalanuvchilar qisqa postlar (tweetlar) orqali o'z fikrini bildiradi va jamoaviy bahs-munozaralarda ishtirok etadi. Xorijiy til o'rganayotganlar uchun real vaqtli muloqot va madaniy diskursni kuzatish imkonini beradi.

Reddit — bu mavzuga asoslangan forumlar (subredditlar) tizimiga ega ijtimoiy platforma bo'lib, foydalanuvchilar savol-javob, maslahat, hayotiy tajriba va madaniy munozaralarda faol qatnashadilar. U global madaniyatlar o'rtasida fikr almashish va muhokama yuritish uchun interaktiv maydon yaratadi (<https://uz.wikipedia.org/wiki/TikTok>).

Mazkur mavzuning dolzarbligini o'rganish maqsadida Yoshlar ijod saroyi atrofida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish kundan kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, xorijiy til o'rganayotgan yoshlar bu platformalardan maqsadli foydalanmoqda. Ular, xususan, YouTube, Instagram va TikTok orqali xorijiy til o'qituvchilari (masalan, Teacher A'zam, Barno Mukimova, Ustozation), shuningdek, Kanada, AQSH, Germaniya yoki Britaniyada yashayotgan o'zbek blogerlari va jurnalistlarini kuzatib boradilar. Bu orqali ular nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantiradilar, balki madaniyatlararo o'xshashlik va tafovutlarni tahlil qilish, tushunish va solishtirish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar.

Shaxsiy kuzatuvlarimga ko'ra, bugungi yoshlar til o'rganish jarayonida ko'proq ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa videolar, bloglar, interaktiv kontentlar orqali bilim olishga moyil. Ular zamonaviy texnologiyalarni nafaqat ko'ngilochar maqsadlarda, balki til va madaniyat haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda ham faol qo'llaydilar. Ayniqsa, xorijiy blogerlar, o'zbek tilida kontent yaratuvchi xorijdagi mutaxassislar orqali ular boshqa madaniyatdagi yashash tarzini, kundalik hayotni, nutq uslublarini bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu orqali yoshlar madaniy tafovutlarni nafaqat eshitadi, balki real holatda ko'radi, tahlil qiladi va o'zlari ham munosabat bildirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy tarmoqlar, ayniqsa YouTube, TikTok va Instagram, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda muhim o'quv vositasi sifatida qaralmoqda (Godwin-Jones, 2018).

Bu fikrlar amaliy kuzatuvlar orqali ham tasdiqlandi. Xususan, Toshkent shahridagi Yoshlar ijod saroyi atrofida o'tkazilgan kichik so'rovnomada ishtirok

etgan respondentlarning aksariyati (ya'ni, 85%) til o'rganishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini tan oldi. Ularning fikricha, aynan YouTube va TikTok platformalari tilni bevosita ona tilida so'zlovchilar orqali eshitish, ko'rish va real muloqot vaziyatlarini tushunishda katta yordam beradi. Qolgan 15% ishtirokchi esa ijtimoiy tarmoqlarni asosan ko'ngilochar maqsadda ishlatishini bildirgan bo'lsa-da, ular ham chet tilidagi kontentni passiv tarzda tinglash orqali til va madaniyat haqidagi bilimlarini oshirishayotganini tan oldilar. So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlar bu platformalardan nafaqat lingvistik, balki madaniy kompetensiyalarni ham shakllantirish vositasi sifatida foydalanishmoqda.

X (sobiq Twitter) va Reddit kabi ijtimoiy platformalar turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida bahs-munozaralar va ochiq muzokaralar olib borish uchun qulay maydon yaratadi. Ayniqsa, xorijiy til, xususan ingliz tilini va uning madaniyatini o'rganayotgan yoshlar uchun bu platformalar o'z fikrlarini shu tilda ifodalash, boshqa foydalanuvchilar tomonidan yozilgan post va izohlarni o'qish, hamda bevosita ingliz tili 1-til bo'lgan foydalanuvchilarga murojaat qilish orqali madaniyatlararo muloqotga kirishish imkoniyatini taqdim etadi. Masalan, Reddit'dagi "Ask an American" yoki "Explain like I'm five" kabi subredditlar, yoki Twitter'dagi global trendlar orqali o'quvchi o'z madaniyatidan farqli muhitda odamlar qanday fikrlashini, nimalarga e'tibor berishini tushunadi. Bu esa sotsial moslashuv, empatiya, muloqot madaniyati kabi jihatlarni kuchaytiradi.

Bunday jarayonlarda til faqat vosita emas, balki madaniy pozitsiyalar, qadriyatlar va ijtimoiy identifikatsiyani anglash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Natijada, o'quvchilar nafaqat lingvistik ko'nikmalarni, balki muayyan ijtimoiy-guruh kontekstidagi madaniy va nutqiy o'ziga xosliklarni ham tahlil qilish imkoniga ega bo'ladilar.

Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning xorijiy til ta'limida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni o'rganildi. Asosiy e'tibor zamonaviy yoshlar tomonidan keng qo'llanilayotgan TikTok, YouTube, Instagram, X (sobiq Twitter) va Reddit kabi platformalarga qaratildi. Ushbu platformalar orqali yoshlar turli madaniyat vakillarining kundalik hayoti, urf-odatlarini, qadriyatlarini va muloqot uslublari bilan bevosita tanishish imkoniga ega bo'ladilar. Tadqiqot davomida madaniyatlararo kompetensiya nazariy asoslari (Byram va Deardorff modellari) tahlil qilindi va ular ijtimoiy tarmoqlar orqali qanday real shakllanishi mumkinligi amaliy misollar bilan ko'rsatib berildi.

Xulosa

Yuqorida ko'rsatilgan so'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlar bu platformalardan nafaqat ko'ngilochar maqsadda, balki til o'rganish va madaniy kontekstni anglash uchun faol foydalanmoqda. Ularning fikricha, aynan qisqa, real hayotga asoslangan videokontentlar, xorijlik blogerlar, va til egalarining bevosita nutqini tinglash orqali ular o'zlarida madaniy xabardorlik, empatiya, sotsial moslashuv va refleksiya kabi ko'nikmalarni rivojlantirayotganliklarini

sezganlar. Mazkur tadqiqot ijtimoiy tarmoqlarni xorijiy til ta'limiga integratsiya qilish nafaqat lingvistik, balki madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish uchun ham samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu mavzu ta'lim tizimi uchun dolzarb bo'lib, o'qituvchilarni zamonaviy vositalar yordamida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga undaydi.

Kelgusida xorijiy til o'qitishda ijtimoiy tarmoqlarga asoslangan interaktiv mashg'ulotlar, madaniy videoanaliz topshiriqlari, virtual bahs-munozaralar, hamda global onlayn hamkorlik loyihalari orqali o'quvchilarning til va madaniyatni bir butun tarzda o'zlashtirishiga keng imkoniyatlar yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Byram, M. (1997). Teaching and assessing intercultural communicative competence. *Multilingual Matters*.
2. Deardorff, D. K. (2006). *The SAGE Handbook of Intercultural Competence*. SAGE Publications.
3. Godwin-Jones, R. (2018). Social Media for Language Learning. *Language Learning & Technology*, 22(2), 1-17.
4. Martin, J. N., & Nakayama, T. K. (2017). *Intercultural Communication in Contexts* (6th ed.). McGraw-Hill Education.
5. Márquez Indias, A. (2022). Technological advances in education: How to engage students through online collaboration. *Journal of Educational Technology*, 39(4), 125-137.
6. UNESCO. (2002). *Universal Declaration on Cultural Diversity*. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Retrieved from www.unesco.org
7. Gulomova, R. (2022). AUTHENTIC MATERIALS AS A SOCIOLINGUISTIC APPROACH. *British View*, 7(1).
8. Turaevna, K. H. (2024). THE ETHICS OF LEGAL RHETORIC: CONSIDERING THE ETHICAL IMPLICATIONS OF USING PERSUASIVE LANGUAGE AND ARGUMENTATION IN LEGAL CONTEXTS. *Miasto Przyszłości*, 48, 294-296.